

OZOD SHARAFIDDINOV “IJODNI ANGLASH BAXTI” ASARIGA TANQIDIY
YONDASHUV

Tog’ayeva Sevinch

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi

Sobirjon Bektashivich Bazarov

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti dekani,
ffffd, dotsent.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14869218>

Annotasiya. O’zbek adabiyotining atoqli olimi va tanqidchisi Ozod Sharafiddinov ijod va ijodkorlik masalalariga bag‘ishlangan “Ijodni anglash baxti” asari bilan milliy tanqidiy fikrlashga ulkan hissa qo’shgan. Bu asar o’zbek adabiyotshunosligining nazariy jihatlarini boyitib, ijodiy jarayonning mohiyatini, ijodkorning jamiyatdagi o‘rnini, mas’uliyatini va ijod falsafasini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada asarning mazmuni, badiiy uslubi va ilmiy ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: tanqid, badiiy uslub, tanqidiy fikrlash, „Ijodni anglash baxti“.

**CRITICAL APPROACH TO THE WORK OF AZOD SHARAFIDDINOV “THE
HAPPINESS OF UNDERSTANDING CREATIVITY”**

Abstract. The outstanding scholar and critic of Uzbek literature Ozod Sharafiddinov made a great contribution to national critical thinking with his work “The Happiness of Understanding Creativity”, dedicated to the issues of creativity and creativity. This work enriches the theoretical aspects of Uzbek literary studies and serves as an important source for studying the essence of the creative process, the role and responsibility of the creator in society, and the philosophy of creativity. This article analyzes the content, artistic style, and scientific significance of the work.

Keywords: criticism, artistic style, critical thinking, “The Happiness of Understanding Creativity”.

**КРИТИЧЕСКИЙ ПОДХОД К РАБОТЕ АЗОДА ШАРАФИДДИНОВА «СЧАСТЬЕ
ПОНИМАНИЯ ТВОРЧЕСТВА»**

Аннотация. Озод Шарафиддинов, видный ученый и критик узбекской литературы, внес значительный вклад в национальное критическое мышление своим трудом «Счастье познания творчества», посвященным вопросам творчества и новаторства. Данный труд обогащает теоретические аспекты узбекского литературоведения и служит важным источником для изучения сущности творческого процесса, роли и ответственности

творца в обществе, философии творчества. В статье анализируются содержание, художественный стиль и научная значимость произведения.

Ключевые слова: критика, художественный стиль, критическое мышление, «Счастье понимания творчества».

“Ijodni anglash baxti” asarida ijod falsafasi, ijodkorning ichki dunyosi, uning erkinlik va mas’uliyat o’rtasidagi muvozanati yoritilgan. Sharafiddinovning fikricha, ijodkorlik inson tabiatining eng yuksak qirrasidir, va bu jarayon nafaqat ijodkor shaxsining ichki ehtiyoji, balki ijtimoiy taraqqiyot uchun ham muhimdir. Muallif ijod jarayonini quyidagi qirralarda ko‘rib chiqadi. Ijodiy izlanishida Sharafiddinov ijodning murakkab jarayon ekanligini va uning faqat iste’dod emas, balki mehnat va izlanish natijasi ekanligini ta’kidlaydi.

Estetik anglashda ijodkor ijod jarayonida nafaqat o‘zini, balki jamiyatni ham anglaydi. Shuning uchun ijodning ijtimoiy va estetik vazifasi bir-biriga chambarchas bog‘liqdir. Ijodkor o‘z so‘zлari va asarlarining ta’sir kuchini anglash bilan birga, jamiyatga yetkazadigan ta’sirini ham nazarda tutishi kerak. Asar ijod falsafasi va nazariyasini yoritishda katta ahamiyatga ega.

Sharafiddinov g‘arbiy va sharqiy madaniy makonlarning adabiy merosiga tayangan holda milliy adabiyotshunoslikni rivojlantirishga intilgan. Jumladan, u G‘arbning Freyd, Jung, Gumboldt kabi olimlari hamda Sharq adabiyoti namoyandalarining g‘oyalarini o‘zbek ijodiy makoniga tatbiq qiladi. Asarning ifoda uslubi falsafiy va badiiy qirralarni o‘zida uyg‘unlashtirgan. Sharafiddinov murakkab fikrlarni oddiy, ammo chuqur tahlil qilinadigan shaklda bayon etadi. Biroq, ba’zi hollarda tilning murakkabligi o‘quvchini qiyinchilikka soladi. Bu asar faqat maxsus bilimga ega mutaxassislar uchun yengil o‘qiladi. Sharafiddinovning ijodga yondashuvi ba’zan subyektiv bo‘lib, uning o‘z dunyoqarashi va qarashlari ba’zan boshqa nuqtai nazarlarni chetlab o‘tgan holda yetakchilik qiladi. Bu esa ayrim tanqidchilar tomonidan ilmiylikdan uzoqlashish sifatida baholanadi. Asar sovet davrida yozilgan bo‘lsa-da, unda milliy qadriyatlar, o‘zlikni anglash masalalari chuqur yoritilgan. Sharafiddinov ijod erkinligini himoya qilib, uni siyosiy doiralar tomonidan cheklanishiga qarshi turadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Ozod Sharafiddinovning “Ijodni anglash baxti” asari ijod falsafasi va adabiy tanqid bo‘yicha noyob asarlardan biridir. Muallif ijodning murakkab qirralarini ilmiy-nazariy asosda tahlil qilgan va ijodiy jarayonni jamiyat rivoji bilan bog‘lagan.

Biroq asarning murakkab tili va subyektiv yondashuvlari uning qabul qilinishida ayrim qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shunga qaramay, bu asar ijodkorlik va tanqidga oid chuqur anglashlarni shakllantirishda muhim manba hisoblanadi.

REFERENCES

1. Tohir Malik Umidimiz yulduzlariga: „Odamiylik mulki“ ga doir suhbatlar - Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi “ Davlat ilmiy nashriyoti, 2018-688b.
2. B.Qosimov, V.Qodirov, Q. Yo‘ldashev, J. Yo‘ldoshbekov , Umumiy o‘rta ta’lim mакtablarining 7-sinf uchun darslik-majmua — Toshkent: „Sharq 2013-368 b.
3. „Kh-davron.uz“ sayti <https://kh-davron.uz>.